



AHOLI FAROVONLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Z.K.Raximov,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasida DSc mustaqil izlanuvchisi.

r.zafar@list.ru

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1609>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 49

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, aholi farovonligi, xizmatlar sohasi, metodologiya, globallashtirish, strategiya, inson salohiyati, islohot, kambag'allikni qisqartirish, yoshlarga oid davlat siyosati, barqaror iqtisodiy o'sish

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada aholi farovonligi tushunchasining nazariy va amaliy jihatlarini kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Xususan, aholi farovonligining iqtisodiy mazmuni, uning tarkibiy qismlari hamda zamonaviy sharoitda shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar chuqur yoritib berilgan. Tadqiqot davomida farovonlik tushunchasining tor va keng talqinlari o'rganilib, uning nafaqat daromad va iste'mol darajasi, balki hayot sifati, ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash va yashash muhiti kabi ko'rsatkichlar bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan. Maqolada iqtisodiy omillar sifatida yalpi ichki mahsulot o'sishi, bandlik darajasi, daromadlarning shakllanishi va taqsimlanishi hamda inflyatsiya darajasining aholi farovonligiga ta'siri tizimli ravishda tahlil etilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy omillar – ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya mexanizmlari va demografik jarayonlarning farovonlik darajasiga ta'siri ham alohida e'tiborga olingan. Tadqiqotda xizmatlar sohasining aholi farovonligini oshirishdagi o'rni muhim yo'nalish sifatida ko'rsatilib, uning bandlikni ta'minlash, daromadlarni oshirish va hayot sifatini yaxshilashdagi roli asoslab berilgan. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yangi iqtisodiy imkoniyatlar yuzaga kelayotgani ta'kidlangan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston sharoitida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, xizmatlar sektorining kengayishi va davlat siyosatining aholi turmush darajasiga ta'siri amaliy jihatdan baholangan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, aholi farovonligini oshirish uchun xizmatlar sohasini rivojlantirish, raqamli xizmatlarni keng joriy etish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 49

KEYWORDS

Socio-economic policy, welfare of the population, service sector, methodology, globalization, strategy, human potential, reforms, poverty reduction, state youth policy, sustainable economic growth

ANNOTATION

This article analyzes the theoretical and practical aspects of the concept of population well-being based on a comprehensive approach. In particular, the economic content of population well-being, its components, and the main factors influencing its formation in modern conditions are thoroughly covered. During the study, narrow and broad interpretations of the concept of well-being were studied, and its inextricable connection with indicators such as not only income and consumption levels, but also quality of life, social protection, education, healthcare, and living environment was substantiated. The article systematically analyzes the impact of economic factors such as gross domestic product growth, employment rate, income formation and distribution, and inflation rate on population well-being. At the same time, special attention is paid to the impact of social factors - the education system, healthcare, social protection mechanisms, and demographic processes on the level of well-being. The study indicates the role of the service sector in increasing the population's well-being as an important direction, and justifies its role in ensuring employment, increasing incomes, and improving the quality of life. In particular, it is emphasized that new economic opportunities are emerging as a result of the development of the digital economy and modern information and communication technologies. The article also provides a practical assessment of the socio-economic reforms being carried out in Uzbekistan, the expansion of the service sector, and the impact of state policy on the standard of living of the population. Based on the results of the study, scientifically based proposals and recommendations have been developed to improve the well-being of the population by developing the service sector, introducing digital services, supporting small businesses and entrepreneurship, modernizing infrastructure, and improving the social protection system.

Kirish. Aholi farovonligi har qanday jamiyat va davlat rivojlanishining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat aholining daromad darajasi bilan, balki yashash sharoiti, sifati ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, bandlik darajasi hamda ijtimoiy himoya tizimining rivojlanganligi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu jihatdan, farovonlik tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillar uyg'unligida shakllanadi.

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida aholi farovonligini ta'minlash masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki iqtisodiy o'sishning o'zi yetarli emas – uning natijalari aholining turmush darajasida qanday aks etayotgani muhim hisoblanadi. Shu bois, davlatlar o'z iqtisodiy siyosatida nafaqat yalpi ichki mahsulotni oshirishga, balki uning aholiga taqsimlanish samaradorligini ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratmoqda.

Aholi farovonligiga ta'sir etuvchi omillar turlicha bo'lib, ular orasida iqtisodiy barqarorlik, bandlik darajasi, xizmatlar sohasining rivojlanganligi, infratuzilma holati, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari, shuningdek, davlat boshqaruvi samaradorligi muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, xizmatlar sohasi rivojlanishi aholi daromadlarini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hayot sifatini yaxshilash orqali farovonlikni ta'minlashda asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Aholi farovonligi va unga ta'sir etuvchi omillar masalasi iqtisodiy nazariya va amaliy tadqiqotlarda keng yoritilgan bo'lib, turli ilmiy maktablar vakillari tomonidan har xil yondashuvlar asosida o'rganilgan. Xususan, marketing va xizmatlar iqtisodiyoti yo'nalishida Filip Kotler, Gary Armstrong, John Saunders hamda Veronica Wong tomonidan yaratilgan "Marketing asoslari" asarida iste'molchilar ehtiyojlari va ularni qondirish mexanizmlari farovonlikning muhim omili sifatida izohlanadi [1, 45-b.]. Ularning fikricha, xizmatlar bozori rivojlanishining turmush darajasini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotiga oid tadqiqotlarda Malcolm McDonald va Adrian Payne xizmatlar marketingini rejalashtirish va boshqarish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligini ta'kidlaydi [2, 112-b.]. Ularning ilmiy qarashlarida xizmatlar sifati va iste'molchi qoniqish darajasi bevosita aholi farovonligiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida ko'rsatilgan.

Iqtisodiy nazariya klassiklari hisoblangan Paul Samuelson va William Nordhaus o'z asarlarida iqtisodiy o'sish va farovonlik o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qilib, yalpi ichki mahsulotning o'sishi farovonlikning asosiy, ammo yetarli bo'lmagan sharti ekanligini asoslab beradi [4, 233-b.]. Shu bilan birga, N. Gregory Mankiw iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va davlat siyosatining muvozanatli olib

borilishi farovonlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [5, 78-b.].

Xizmatlar sohasida aholi bandligi va daromadlari masalasini o'rganishda mahalliy olimlardan M.M. Muxammedov va B.B. Mardonov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ilmiy ishlarida xizmatlar sektorining kengayishi yangi ish o'rinlari yaratish orqali aholi daromadlarini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan [6, 64-b.].

Shuningdek, M.Q. Pardayev xizmatlar tarmoqlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va muammolarini tahlil qilib, ushbu sohaning infratuzilmaviy rivoji farovonlikni oshirishda muhim omil ekanligini qayd etadi [7, 129-b.]. Q.D. Mirzayev va hammualiflar esa xizmatlar iqtisodiyoti orqali hududiy rivojlanish va aholi bandligini ta'minlash masalalarini keng yoritgan [8, 97-b.].

Aholi farovonligining ijtimoiy-psixologik jihatlari L.I. Galiyaxmetova tomonidan subyektiv farovonlik va hayotdan qoniqish tushunchalari orqali o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi asoslab berilgan [9, 52-b.]. Shu bilan birga, E.N. Yeremina shaxsiy xususiyatlar va bandlik holatining farovonlik darajasiga ta'sirini empirik tadqiqotlar asosida tahlil qiladi [10, 41-b.].

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, aholi farovonligi ko'p omilli va kompleks tushuncha bo'lib, u iqtisodiy o'sish, xizmatlar sohasi rivoji, ijtimoiy infratuzilma, davlat siyosati va inson kapitali kabi omillar o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi. Shu sababli mazkur yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar farovonlikni oshirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, ilmiy abstraktlash, tizimli va qiyosiy tahlil, monografik hamda ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Ushbu usullar aholi farovonligi va unga ta'sir etuvchi omillarning mohiyati, tavsifi va tasniflanishining nazariy jihatlarini yoritib berishga yordam beradi.


Shuningdek, mazkur metodlar asosida aholi farovonligining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, ijtimoiy hamda institutsional omillar o'zaro bog'liqlikda va dinamik rivojlanish jarayonida tahlil qilindi. Tizimli yondashuv orqali farovonlik ko'rsatkichlarining tarkibiy tuzilmasi o'rganilib, ularning o'zaro ta'siri va ustuvor yo'nalishlari aniqlandi. Qiyosiy tahlil yordamida esa turli hududlar va davrlar kesimida aholi farovonligi darajasidagi farqlar baholanib, mavjud tendensiyalar ochib berildi.

Monografik usul orqali ilg'or xorijiy tajribalar va ilmiy yondashuvlar o'rganilib, ularni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari asoslab berildi. Ekspert baholash usuli asosida esa soha mutaxassislarining fikr-mulohazalari umumlashtirilib, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar va amaliy takliflar shakllantirildi. Natijada, tadqiqot doirasida olingan ilmiy xulosalar aholi farovonligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish va samarali ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar. Ilmiy adabiyotlarda aholi farovonligi tushunchasi keng va tor ma'nolarda talqin etiladi. Tor ma'noda u aholi daromadlari va iste'mol darajasi bilan ifodalanadi. Keng ma'noda esa farovonlik insonning hayot sifati, ijtimoiy himoyalanganligi, sog'ligi, bilim darajasi va yashash muhiti bilan belgilanadi.

Bugungi kunda, aholi farovonligi tushunchasi ularga yaratilgan sharoitlar, yashash tarzi, iste'mol qobiliyati, sog'lig'i, ilmi va ularga davlat tomonidan yaratib berilgan ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar bilan ham baholanmoqda. Aholi farovonligini ta'minlashda davlat bosh islohotchi sifatida rol o'ynaydi, ammo faqatgina davlat emas, aholi farovonligini ta'minlash jarayonining xususiy sektor ishtirokchilari ham bo'lishi mumkin. Bularga misol qilib aytganda, xususiy ta'lim va tibbiyot muassasalari, moddiy ishlab chiqaruvchilar, xavfsizlik, infratuzilma, ekologik kabi boshqa xizmatlar ham kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aholi farovonligi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Aholi farovonligining tarkibiy qismlari¹

1-rasmda keltirilgan aholi farovonligining tarkibiy qismlarini doimiy o'rganib borish va ularni samarali rivojlantirish davomida ularga ta'sir etuvchi omillar tahlili muhim ahamiyatni kasb etadi. Ma'lumki, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida omillar mavjud bo'lib, ular soha samaradorligiga keskin ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki, bugungi kunda aholi farovonligini ta'minlashda iqtisodiy omillar yetakchi o'rinni egallamoqda. Bularga:

Birinchidan, iqtisodiy o'sish darajasi. Yalpi ichki mahsulotning o'sishi mamlakat iqtisodiy salohiyatining ortishini bildiradi. Biroq iqtisodiy o'sishning aholi farovonligiga ta'siri uning taqsimlanish mexanizmlariga ham bog'liqdir.

Ikkinchidan, bandlik darajasi. Aholining ish bilan ta'minlanganligi ularning barqaror daromad manbaiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Ishsizlik darajasining yuqoriligi esa ijtimoiy tengsizlik va kambag'allikni kuchaytiradi.

Uchinchidan, daromadlar darajasi va ularning taqsimlanishi. Aholi daromadlarining nafaqat hajmi, balki adolatli taqsimlanishi ham muhim ahamiyatga ega. Daromadlar o'rtasidagi katta tafovut ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytiradi.

To'rtinchidan, inflyatsiya darajasi. Narxlarning keskin o'sishi aholining real daromadlarini kamaytiradi va turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Keyingi o'rinda – aholi farovonligiga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi ijtimoiy omillar kiradi:

Ta'lim tizimi – inson kapitalini shakllantiruvchi asosiy omil bo'lib, yuqori malakali kadrlar iqtisodiy o'sish va daromadlarning oshishiga xizmat qiladi.

Sog'liqni saqlash tizimi – aholining sog'lom bo'lishi mehnat unumdorligini oshiradi va iqtisodiy faollikni kuchaytiradi.

Ijtimoiy himoya tizimi – kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Demografik omillar – aholi soni, yosh tarkibi va migratsiya jarayonlari ham farovonlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasi aholi farovonligini oshirishning muhim drayveri sifatida namoyon bo'lib, bu sohaning rivojlanganlik darajasi ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ya'ni xizmatlar sohasi:

- yangi ish o'rinlarini yaratadi;
- daromad manbalarini kengaytiradi;
- aholining kundalik ehtiyojlarini qondiradi;
- hayot sifatini yaxshilaydi.

Ayniqsa, savdo, transport, moliya, turizm va axborot-kommunikatsiya xizmatlari iqtisodiy faollikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli xizmatlarning rivojlanishi esa yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

¹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholi farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri iqtisodiy rivojlanish darajasidir. So'nggi yillarda yalpi ichki mahsulotning barqaror o'sishi, sanoat va xizmatlar sohasining kengayishi aholi daromadlarining ortishiga xizmat qilmoqda.

Bandlik darajasi ham muhim omillardan hisoblanadi. Yangi ish o'rinlari yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholining daromad manbalari kengaymoqda. Ayniqsa, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mehnat bozorida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, inflyatsiya darajasi va narxlar barqarorligi ham farovonlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Narxlarning keskin oshishi real daromadlarni kamaytirishi mumkin, shu bois makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Shu jumladan, O'zbekistonda xizmatlar sohasi aholi farovonligini oshirishning asosiy drayverlaridan biri bo'lib, savdo, transport, turizm, moliyaviy xizmatlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi iqtisodiy faollikni oshirib, yangi ish o'rinlarini yaratishi bilan aholi bandligini ta'minlashda va xizmatlar sifatini oshirish bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida elektron xizmatlar keng joriy etilib, aholining turmush darajasi sezilarli darajada yaxshilanmoqda.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aholi farovonligi murakkab va ko'p omilli ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, uni faqat daromadlar yoki iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari orqali to'liq baholab bo'lmaydi. Amaliy kuzatuvlar va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida aniqlanishicha, farovonlik darajasi iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Shu jihatdan, yalpi ichki mahsulotning o'sishi muhim omil bo'lsa-da, uning aholi qatlamlari o'rtasida adolatli taqsimlanishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aks holda iqtisodiy o'sish ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi va farovonlik darajasining notekis shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, bandlik darajasi va mehnat bozori barqarorligi aholi farovonligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Barqaror ish o'rinlarining mavjudligi aholining daromad manbalarini mustahkamlab, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi farovonlik darajasini pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi, chunki bu holatda ijtimoiy himoya mexanizmlaridan foydalanish imkoniyati cheklanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari xizmatlar sohasining aholi farovonligini oshirishdagi o'rni tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Xizmatlar sektori nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratadi, balki iqtisodiy faollikni rag'batlantirib, daromadlar diversifikatsiyasini ta'minlaydi. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda raqamli xizmatlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi aholining turmush tarzini sezilarli darajada o'zgartirib, xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu esa o'z navbatida farovonlikning yangi sifat bosqichiga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Котлер Ф., Армстронг Г., Сондерс Дж., Вонг В. Основы маркетинга. – М., СПб., К.: Издат. дом «Вильямс», 1999.-718 с.
2. Мак-Дональд М., Пэйн Э.Сфера услуг. Полное пошаговое руководство по маркетинговому планированию.- М.: КноРус, 2009.-448 с.
3. Гойхман О.Я. К вопросу формирования терминологии сферы сервиса // Теоретические и прикладные проблемы сервиса. - 2007. №1. – С., 31-34.
4. A.Paul, Samuelson, D.William Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2009. – 744 p.
5. McConnell, Brue. Economics. 19 th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014. – 984 p.; N.Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA, 2014. – 880 p.
6. Мухаммедов М.М., Мардонов Б.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги ва даромадлари. Монография. «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи». 2021, 186 б.
7. Пардаев М.К. Хизматлар кўрсатиш тармоқлари иктисодиётининг айрим муаммолари. –Т.: Наврўз, 2014. –264.

Muhokama davomida ijtimoiy omillarning ham ahamiyati yuqori ekanligi tasdiqlandi. Ta'lim tizimining rivojlanganligi inson kapitalini shakllantiradi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratadi. Sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi esa mehnat unumdorligini oshirish orqali iqtisodiy faollikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimining kuchli bo'lishi jamiyatda ijtimoiy tenglik va barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston sharoitida olib borilayotgan islohotlar natijalari ham muhokama qilinib, so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi, xizmatlar sohasining kengayishi va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosati aholi daromadlarining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani qayd etildi. Biroq ayrim hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar, infratuzilma rivojlanishidagi nomutanosibliklar va mehnat bozorida muammolar farovonlikni bir xil darajada ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan omillar sifatida baholandi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, aholi farovonligini oshirish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, bunda iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga uning natijalarini adolatli taqsimlash, bandlikni kengaytirish, xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida qaralishi lozim.

Xulosa. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida aholi farovonligini ta'minlash kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash, xizmatlar sohasini rivojlantirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini takomillashtirish, shuningdek, samarali davlat boshqaruvi ushbu jarayonning asosiy omillari hisoblanadi.

Ayniqsa, xizmatlar sektorining jadal rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi va ijtimoiy himoya tizimining mustahkamlanishi aholi farovonligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Shu bois, mazkur yo'nalishlarda olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish mamlakatning barqaror rivojlanishi va aholi turmush darajasini yuksaltirishning muhim sharti hisoblanadi.

Aholi farovonligi va unga ta'sir etuvchi omillarni kamaytirish hamda xizmatlar sohasini samarali tashkil etish bilan birga aholi farovonligini oshirish uchun quyidagilarni rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz:

- Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlantirish;
- Raqamli xizmatlarni keng joriy etish;
- Kichik biznes va startaplarni qo'llab-quvvatlash;
- Kasb-hunar va xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- Turizm va servis infratuzilmasini rivojlantirish;
- Ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish;
- Infratuzilmani modernizatsiya qilish;
- Ijtimoiy himoya tizimini manzilli qilish;
- Investitsiya muhitini yaxshilash;
- Hududiy ixtisoslashuvni rivojlantirish.

8. Мирзаев Қ.Д., Султонов Ш.А. ва бошқалар Хизматлар соҳаси иктисодиёти. Дарслик. Самарқанд. СамИСИ, 2022. –251 б.

9. Л.И.Галиахметова Благополучие, субъективное благополучие, удовлетворённость жизнью: проблема взаимосвязи. – Вестник Башкирского университета. 2015. Т. 20.

10. Е.Н.Уремина Личностные характеристики как предикторы субъективного благополучия личности с разной ситуацией трудовой занятости. Иза. Саратов. Ун-та. Нов. Сер. Сер. Акмеология образование. Психология развития. 2017. Т. 6, вып. 1 (21).

11. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi 2023 yil ma'lumotlari.

12. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413> – Qonunchilik ma'lumotlari milliy elektron bazasi.

13. www.jmbm.uz – Journal of marketing, business and management (JMBM).

14. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi sayti.

15. <https://www.worldbank.org> – Jahon banki sayti